

O'zbekiston-Koreya: ilmiy hamkorlik

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Mikrobiologiya institutiga Koreya iqlim o'zgarishi instituti vitse-prezidenti Gap-Chol Kim, Institut direktori Djemma Kim va tadqiqotchi Ki-Baek Leelar tashrif buyurdilar.



Dastlab mehmonlar Mikrobiologiya instituti faoliyati bilan tanishdilar hamda ikki davlat uchun manfaatli bo'lgan hamkorlik yo'nalishlari muhokama qildilar. Shuningdek, tashrif davomida mehmonlar mazkur Institutning bioenergetika sohasidagi faoliyati bilan ham yaqindan tanishdilar. Mehmonlar, ayniqsa, Koreyaning O'zbekistonda Bioenergiya markazini tashkil etish va ushbu hamkorlikka katta qiziqish bildirdilar.